

### TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:	QR kod
<input type="text"/>	

#### 1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Tarmoq malakalar ramkasi temir yo'l transporti sohasida tashishlarni tashkil etish, metropolitendan foydalanuvchi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish hamda tashishni tashkil etish jarayonida ishtirok etuvchi mutaxassislarning, shuningdek ushbu jarayonlarini ta'minlovchi boshqa mutaxassislarning ma'lumoti, malakasiga qo'yiladigan talablarni aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Temir yo'l, metro transporti sohasining o'ziga xos xususiyatlari va jamiyat mutaxassislarning faoliyati tashishlarni tashkil etish va harakat xavfsizligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqligi sababli, mutaxassislarning maxsus tayyorgarligini talab etadi. Tarmoq malaka ramkasida har bir lavozim bajaradigan funksiyalarning murakkablik darajasi va unga qo'yiladigan ma'suliyat darajasi aks etgan. Bu esa xodimlarning malakasiga bo'lgan talabni, kasbiy ma'lumot tizimi bitiruvchilari malakasiga bo'lgan talabni va tarmoq talablariga javob beradigan kasb standartlarini ishlab chiqish kabi talablar doirasini aniqlaydi va mehnat haqini to'lash mexanizmini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Tarmoq malakalar ramkasining asosiy maqsadi:

Temir yo'l va metro transporti sohasining rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda, kasbiy standartlarni kelgusida ishlab chiqish uchun Milliy malaka tizimi doirasida darajaviy malaka vakolatlarini tavsiflash, ushbu soha uchun uzviy va barqaror ta'lim tizimini shakllantirish, kasbiy standartlar, kasbiy ta'lim va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda xodimlar hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan umumiy talablarni belgilash maqsad qilib olinadi. Shu bilan birga, temir yo'l va metro transporti sohasining umumiy strategiyasini hamda kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish, shuningdek muayyan malakani egallash, malaka darajasini bosqichma-bosqich oshirish orqali mehnat faoliyati davomida kasbiy va martaba rivojlanishi trayektoriyasini rejalashtirish nazarda tutiladi.

Ushbu tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlardan iborat kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

vagonlar (konteynerlar) operatori – mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asoslarda vagonlarga (konteynerlarga) egalik qiladigan, temir yo'l transportining tashuvchisi bilan tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatish orqali tashish jarayonida ishtirok etadigan va tashish hujjatlarida ko'rsatilgan yuridik shaxs;

tashish jarayoni – umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti korxonalari, tashuvchi, vagonlar (konteynerlar) operatori, infratuzilma operatori tomonidan yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini tashishga tayyorgarlik ko'rishda, ushbu tashishni amalga oshirishda va yakunlashda bajariladigan, tashkiliy va texnologik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan harakatlar va operatsiyalar majmui;

temir yo'l stansiyasi – poyezdlarni qabul qilish, jo'natish, kesishtirish va quvib o'tish operatsiyalarini, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini qabul qilish, berish hamda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish operatsiyalarini, poyezdlarni tarqatish va tuzish bo'yicha manyovr ishlarini hamda poyezdlar bilan texnik operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradigan, asosiy temir yo'llardan tashqari temir yo'llarning qo'shimcha guruhlariga ega bo'lgan alohida punkt;

temir yo'l transporti – umumiy foydalanishdagi va umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'l transportidan iborat bo'lgan hamda jismoniy va yuridik shaxslarning temir yo'llar bo'ylab tashishlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash uchun mo'ljallangan transport turi;

temir yo'l transporti infratuzilmasi – texnologik majmua bo'lib, u ushbu majmua faoliyatini ta'minlovchi temir yo'llarni, temir yo'l stansiyalarini, elektr ta'minoti qurilmalarini, aloqa tarmoqlarini, signalizatsiya, markazlashtirish va bloklash tizimlarini, axborot majmualarini, harakatni boshqarish tizimini, binolar, inshootlar, qurilmalar, jihozlar va uskunalarni o'z ichiga oladi;

temir yo'l transporti obyekti – foydalanishda bo'lgan temir yo'l transporti infratuzilmasi va uning tarkibiy qismlari, vokzallar, harakatdagi tarkib, umumiy foydalanishdagi va umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'l transporti;

umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'llar – yukni jo'natuvchilarga (jo'natuvchilarga) va yukni oluvchilarga (oluvchilarga) shartnoma shartlari asosida xizmat ko'rsatish yoki egalik qiluvchining o'z ehtiyojlari uchun texnologik ishlarni bajarishga mo'ljallangan umumiy foydalanishdagi temir yo'llarga bevosita yoki boshqa temir yo'l shoxobcha yo'llari orqali tutashadigan shoxobcha temir yo'llar, shuningdek umumiy foydalanishdagi temir yo'llarga tutashmaydigan temir yo'llar;

umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'l transporti – yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan, harakatdagi temir yo'l tarkibini va umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'l transporti infratuzilmasi obyektlarini o'z ichiga olgan, shartnoma asosida yuridik va jismoniy shaxslarning ehtiyojlarini ta'minlash, shuningdek umumiy foydalanishda bo'lmagan joylardagi shaxsiy ehtiyojlar uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish-texnologik komplekslar majmui;

umumiy foydalanishdagi temir yo'llar – umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti sohasidagi vakolatli tashkilotga va uning bo'linmalariga tegishli bo'lgan, poyezdlarni o'tkazish, qabul qilish va jo'natish, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini qabul qilish hamda berish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha tegishli operatsiyalarni, manyovr ishlarini bajarish uchun ochiq bo'lgan, ajratilgan mintaqa doirasida peregonlar, temir yo'l stansiyalari, razyezdlar, quvib o'tish punktlari joylashgan temir yo'llar;

umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti – temir yo'l transporti infratuzilmasini, harakatdagi temir yo'l tarkibini, boshqa mol-mulkni o'z ichiga olgan hamda ommaviy shartnomalar asosida yuridik va jismoniy shaxslarning tashishlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash uchun mo'ljallangan yagona ishlab chiqarish-texnologik majmua;

umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti infratuzilmasining operatori – umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti sohasidagi vakolatli tashkilotga tegishli bo'lgan, umumiy foydalanishdagi temir yo'llarning va umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti infratuzilmasi boshqa obyektlarining foydalanilishini, joriy saqlanishini va modernizatsiyasini, qurilishini amalga oshiradigan, shuningdek infratuzilmadan foydalanish xizmatlarini, shu jumladan harakatdagi tarkibni o'tkazish va olib o'tish uchun umumiy foydalanishdagi temir yo'llardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik shaxs;

umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti korxonalarini – umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti sohasidagi vakolatli tashkilotning asosiy faoliyati bevosita tashish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish va tashishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan tarkibiy bo'linmalari va sho'ba xo'jalik jamiyatlari;

yuk jo'natuvchi (jo'natuvchi) – o'z nomidan yoxud yukning yoki yuk bagajining egasi nomidan ish yuritadigan va tashish hujjatlarida ko'rsatilgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

harakatdagi temir yo'l tarkibi – lokomotivlar, tortish lokomotivining yuk, bagaj, yo'lovchi tashish vagonlari va motorvagonli harakatdagi tarkib, shuningdek tashishlarning amalga oshirilishini va temir yo'l transportining faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun mo'ljallangan boshqa transport vositalari;

ishi bevosita poyezdlar harakati bilan bog'liq bo'lgan temir yo'l transporti ayrim toifadagi xodimlar – poyezdlar harakati, yo'l xo'jaligi, maxsus harakatdagi tarkib, lokomotiv, xizmat, xizmat-texnik hamda yo'lovchi vagonlar, tiklash poyezdlariga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar;

lokomotiv brigadasi – lokomotivlarga (elektrovoz, teplovoz, gaz turbinali lokomotiv, parovoz va motovozlar), motorvagonli harakatdagi tarkibga xizmat ko'rsatish va ularni xavfsiz boshqarish uchun tayinlanadigan temir yo'l transporti xodimlaridan (brigadani boshqaruvchi mashinist va uning yordamchisi) iborat guruh.

Tarmoqda kasbiy faoliyatni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrda qabul qilingan "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi O'RBQ-1006-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4954-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi "Temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktabrdagi "Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5260-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 13-apreldagi 109-son qarori bilan tasdiqlangan “Temir yo‘l transportida yo‘lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalari” to‘g‘risidagi nizom;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi “Kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini tashkil etish va boshqarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-369-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-oktyabrdagi “Metropolitenda yo‘lovchilar hamda boshqa shaxslarning bo‘lish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 535-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan “Temir yo‘l transporti xodimlarining intizomi to‘g‘risida”gi nizom (O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq);

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2022-yil 27-iyuldagi 3376-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Temir yo‘l transporti hamda metropolitenda harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq hodisalarni tasniflash, xizmat tekshiruvini olib borish va hisobga olish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.

Asosiy qisqartmalar:

AJ – Aksiyadorlik jamiyati;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

MDH – Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi;

SCADA – Supervisory control and data acquisition.

## **2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti**

Temir yo‘l va metro sohasi yo‘lovchi va yuk tashishni xavfsiz, uzluksiz va samarali tashkil etishga qaratilgan transport infratuzilmasining muhim tarmog‘i hisoblanadi. Ushbu soha temir yo‘l va metro yo‘llari, inshootlar, harakat tarkibi, signalizatsiya va aloqa tizimlarini loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish hamda texnik xizmat ko‘rsatish faoliyatlarini qamrab oladi. Soha faoliyati yuqori darajadagi texnik bilim, mehnat xavfsizligi, ekologik mas‘uliyat va raqamli texnologiyalarni qo‘llashni talab etadi. Temir yo‘l va metro tizimlari mamlakat iqtisodiy rivoji, urbanizatsiya jarayonlari va aholi harakatchanligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Soha uchun malakali kadrlar tayyorlash zamonaviy texnologiyalar va xalqaro standartlarga mos kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Temir yo‘l, metro transporti sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Seksiya nomi:

C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat;

F – seksiya Qurilish;

H – seksiya Tashish va saqlash.

O'zbekiston Respublikasida Temir yo'l transporti sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat	30 Boshqa transport uchkunalari ishlab chiqarish	30.2 Temir yo'l lokomotivlari va harakatdagi sostavlar ishlab chiqarish	30.20 Temir yo'l lokomotivlari va harakatdagi sostavlar ishlab chiqarish	30.20.0 Temir yo'l lokomotivlari va harakatdagi sostavlar ishlab chiqarish
		33 Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	33.1 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash	33.17 Transport uskunalarning boshqa turlarini ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish	33.17.1 Temir yo'l lokomotivlari va harakatdagi sostavlar, jumladan tramvaylar, metro vagonlari va trolleybuslarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish
3	F – seksiya Qurilish	42 Fuqarolik obyektlarini qurish	42.1 Avtomobil yo'llari va temir yo'llar qurish.	42.12 Temir yo'llar va metro liniyalari qurish	42.12.0 Temir yo'llar va metro liniyalari qurish
				42.13 Ko'priklar va tunnellar qurish.	42.13.0 Ko'priklar va tunnellar qurish;
5	H – seksiya Tashish va saqlash	49 Quruqlikdagi va quvur transporti	49.1 Temir yo'l yo'lovchi transporti, shaharlararo	49.10 Temir yo'l yo'lovchi transporti, shaharlararo	49.10.0 Temir yo'l yo'lovchi transporti, shaharlararo
			49.2 Temir yo'l yuk transporti	49.20 Temir yo'l yuk transporti	49.20.0 Temir yo'l yuk transporti
		52 Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati	52.1 Omborlarga joylash va saqlash	52.10 Omborlarga joylash va saqlash	52.10.0 Omborlarga joylash va saqlash
			52.2 Transportda tashish bo'yicha yordamchi faoliyat	52.21 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar	52.21.0 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar
52.29 Tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari	52.29.1 Temir yo'l, avtotransport, dengiz yoki havo orqali transportda tashishni tashkil qilish				

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarining rahbarlari
2.	13211	Ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari

3.	13212	Energiya ta'minoti sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
4.	13241	Tovarlarni yetkazib berish, tarqatish va shunga o'xshash faoliyat bo'yicha xizmatlar rahbarlari
5.	13245	Temir yo'l transporti sohasida bo'linmalar rahbarlari
6.	13490	Boshqa mashg'ulot guruhlarga kiritilmagan ixtisoslashtirilgan xizmat ko'rsatish sohasidagi rahbarlar, b.g.k.
7.	21411	Ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha muhandislar
8.	21414	Sifat nazorati bo'yicha muhandislar
9.	21419	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan sanoat va ishlab chiqarish sohasidagi muhandislar, b.g.k
10.	21421	Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha muhandislar
11.	21422	Transport obyektlari qurilishi bo'yicha muhandislar
12.	21441	Muhandis-mexaniklar (umumiy)
13.	21445	Temir yo'l transporti bo'yicha muhandislar
14.	21449	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan mexanika muhandislari, b.g.k
15.	21654	Geodezistlar
16.	23201	Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari
17.	23202	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida kasb ta'limi ustalari
18.	24313	Ta'minot va logistika sohasida professional-mutaxassislar
19.	31129	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan qurilish sohasidagi texniklar, b.g.k.
20.	31151	Texnik-mexaniklar (umumiy)
21.	31155	Temir yo'l transporti bo'yicha texniklar
22.	31157	Havo-sovitish va konditsioner tizimlari bo'yicha texniklar
23.	31292	Tashishni tashkil etish va transport xavfsizligi xodimlari
24.	43221	Ishlab chiqarish, sanoat, energetika sohasi (ishlab chiqarishni rejalashtirish) mahsulotlarni hisobga olish bilan shug'ullanadigan xodimlar
25.	43231	Temir yo'l transporti dispetcherlari
26.	43233	Quruqlik transporti xodimlari
27.	43239	Boshqa mashg'ulotlar guinhlarga kiritilmagan transportni hisobga olish bilan shug'ullanadigan xodimlar, b.g.k
28.	51113	Quruqlik transporti kuzatuvchilari va styuardlar
29.	51121	Konduktorlar
30.	51122	Chipta nazoratchilari
31.	52300	Kassirlar va chipta sotuvchilari
32.	54140	Qo'riqchilar
33.	54190	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan fuqarolar va mulkni himoya qiladigan xizmatlar xodimlari, b.g.k.
34.	71190	Boshqa boshlang'ich gumhlarga kiritilmagan qurilish va turdosh kasblar ishchilari, b.g.k
35.	72331	Temir yo'l transporti uskunalari ta'mirlash uchun montajchilar, chilangarlar va sozlovchilar
36.	81829	Boshqa mashg'ulot guruhlarga kiritilmagan bug <sup>1</sup> dvigatellari va qozonxonalarining operatorlari, b.g.k.
37.	81890	Boshqa boshlang'ich guruhlarga kiritilmagan sanoat qurilmalari va dastgohlari operatorlari, b.g.k
38.	83110	Lokomotiv mashinistlari
39.	83120	Tormoz ishchilari, o'tkazgidilar va ulagichlar

40.	83424	Yo'l ta'miri va saqlash mashinalari operatorlari
41.	83429	Boshqa mashg'ulot gurulilariga kiritilmagan yer qazuvchi va shunga o'xshash mashinalarning mashinistlari, b.g.k
42.	91220	Transport vositalarini yuvuvchilar
43.	93330	Yukchilar
44.	31220	Ishlab-chiqarish sanoati brigadirlari
45.	74122	Lift, eskalator va boshqa ko'tarish mexanizmlari elektromontyorlari va elektromexaniklari
46.	81411	Rezina ishlab chiqarish operatorlari
47.	72122	Gaz bilan kesuvchilar
48.	83220	Yengil avtomobil haydovchilari
49.	83431	Kran va ko'tarish mashinalari operatorlari
50.	83320	Yuk tashuvchi avtomobil haydovchilari
51.	93120	Yo'llar, to'g'onlar va shunga o'xshash inshootlarni qurish va ta'mirlashda band bo'lgan malakasiz ishchilar
52.	74129	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan elektr jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyorlar va elektromexaniklar, b.g.k.
53.	83439	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan kranlar, ko'tarish mashinalari va ortish-tushirish qurilmalari mashinistlari, b.g.k.

### 3. Tarmoq tahlili

Mustaqillik yillari davomida O'zbekistonda yangi po'lat izlarni (magistral) shakllantirish bo'yicha ulkan ishlar qilindi. Qizilqum cho'llarida Navoiy-Uchquduq-Sultonuvaystog'-Nukus temir yo'llari qurildi, Amudaryo orqali temir yo'l-avtomobil qo'shma ko'prigi barpo etildi, murakkab tog' sharoitida Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li qurildi.

Biz mavjud bo'lgan temir yo'l tarmog'ini modernizatsiyalashga ham muhim ahamiyat beramiz. Osiyo tarraqiyot bankining jalb qilingan mablag'lari evaziga 2 ta yirik investitsiya loyihasi amalga oshirildi va Toshkent-Samarqand-Buxoro uchastkasida yo'llar qayta tiklandi, Keles-Buxoro uchastkasida 600 kmdan ortiq bo'lgan uzunlikdagi optik tolali aloqa liniyalarini yotqizish yakunlandi. To'qimachi-Angren temir yo'l liniyasini elektrlashtirish ishlari yakunlandi. Yangi Yangiyer-Jizzax va Yangiyer-Farhod temir yo'l liniyalarini qurish ishlari yakunlandi.

Jamiyat lokomotiv parklarini, yo'lovchi va yuk vagonlarini yangilash bo'yicha bir qator loyihalarni amalga oshirmoqda. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ korxonalarida yo'lovchi va yuk vagonlarini seriyali ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Bu, hususan, havoni sovitish moslamasi bilan jihozlangan kupeli vagonlar, yuk vagonlarining eng katta talabga turlari – yopiq, neft mahsulotlari uchun sisternalar, yarimvagonlar va boshqalar.

Yuk va yo'lovchi vagonlarini ishlab chiqarish uchun tegishli litsenziya va sertifikatlar olingan, vagonlar standartlarga va 1520 mm li temir yo'l oralig'i talablariga javob beradi, sanoat korxonalarida sifat menejmenti tizimi ISO 9001-2000 joriy qilingan. Hozirgi vaqtda vagonlar MDH mamlakatlari temir yo'llari orqali harakatlanyapti.



Temir yo'lda elektr tortishning teplovoz tortishga nisbatan ishonchli va samaradorligiga shubha yo'q. Umuman olganda, elektrovozlar oddiyroqdir, ekspluatatsiya qilish jarayonida qulayroq va ayniqsa shahar sharoitida muhim omil bo'lgan narsa-atrof muhitni kamroq ifloslantiradi.

O'zbekiston temir yo'llarni doimiy oqimda elektrlashtirish 1971-yilda boshlangan. Xorijiy investitsiyalar va "O'zbekiston temir yo'llari" AJning o'z mablag'lari evaziga amalga oshirilgan so'nggi loyihalaridan biri To'qimachi temir yo'l uchastkasini elektrlashtirish edi. Ushbu temir yo'l uchastkasini foydalanishga topshirish evaziga elektrlashtirilgan uchastkalarining umumiy uzunligi 1601 km ga yetdi.

Loyihaning maqsadi bu uchastkada mavjud bo'lgan dizel tortishni o'zgaruvchan tokli elektr tortishga o'zgartirish edi, bu Toshkent hududida barcha temir yo'l liniyalarini zamonaviy texnologiyalarga o'tishni yakunlashga olib keladi.

Butun uchastka bo'ylab yangi texnologiyalar- SCADA masofadan boshqarish tizimi, aloqa tizimi, tortish podstantsiyalari, mikroprotessor markazlashtirish tizimi, o'q va telekommunikatsiya electron hisoblash tizimlari joriy qilingan. Elektr ta'minot tizimi poezdlarning soatiga 160 kmgacha tezlik bilan harakatlanishini hisobga olgan holda qurilgan.

Qurilish paytida umumiy uzunligi 265 m bo'lgan 3 ta ko'prik, 2258 ta elektr minoralar, elektr podstantsiyalar, poezdlar harakat xavfsizligini ta'minlovchi zamonaviy uskunalar va nazorat asboblari bilan jihozlangan navbatchi punktlari va markazlashtirilgan elektr ta'minot postlari uchun 6 ta bino va inshootlar barpo etildi.

Ushbu loyihaning amalga oshirilishi ekspluatatsiya harajatlarini 1.8 barobar kamaytirishga, mintaqada ekologik vaziyatni yaxshilash va 50 ta qo'shimcha ish o'rinlarini ochish bilan bandlik muammosini hal qilishga sabab bo'ldi. Yangi elektrlashtirilgan bo'lim temir yo'llarning o'tkazuvchanlik salohiyatini oshirdi, yuk va yo'lovchilarni yetkazib berish vaqtini qisqartirdi, dizel yoqilg'isini harajatlarini kamaytirdi.

Hozirgi vaqtda Maroqand-Qarshi, Qarshi-Termiz temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish, yangi elektrlashtirilgan Angren-Pop liniyasini qurish investitsion loyihalari amalga oshirildi.

2016-yilning 22-iyunda O'zbekiston va Xitoy hamkorligining yirik va istiqbolli loyihasi ijrosi – Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'li hamda Qamchiq tunnelining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo'li hamda Qamchiq tunnelining rasmiy ochilish marosimining eng muhim ahamiyatga ega tomonlaridan biri, ushbu marosimda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin ishtirok etgani bo'ldi. Jahonga mashhur ikki davlat rahbarlari "O'zbekiston" yo'lovchi poezdining Qamchiq tunnelidan o'tishiga ruxsat beruvchi semaforni yoqish uchun maxsus tugmani bosganliklarini butun dunyo kuzatib turdi.

Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasini barpo etishdan maqsad ham nafaqat Farg‘ona vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o‘rtasida temir yo‘l orqali yuk va yo‘lovchi tashish imkoniyatini yaratish, shu bilan birga, Xitoy – Markaziy Osiyo – Evropa yangi xalqaro tranzit temir yo‘l koridorining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lishi nazarda tutilgan edi. Uzunligi 123,1 kilometr bo‘lgan Angren – Pop temir yo‘lining Qamchiq dovonidan o‘tgan qismida 19,2 kilometrlik tunnel barpo etildi. Ushbu qurilish jarayonlari davomida o‘zbekistonlik temiryo‘lchilarning salohiyatiga xitoylik mutaxassislar qoyil qolishdi, xitoyliklarning mahoratiga o‘zbekistonliklar tasannolar aytishdi. Katta mehnat g‘alabasiga har ikki tomonning yuksak mehnati, hamjihatligi tufayli muddatidan avval erishildi.

2017-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi davomida Xitoy ishbilarmon doiralari vakillari bilan uchrashdi. Aynan ana shu anjumanda Davlatimiz rahbari Xitoyning “China Railway Tunnel Group” kompaniyasiga Angren – Pop temir yo‘lining Qamchiq dovoni qurilishining muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi uchun alohida minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, mazkur tashrif doirasida ko‘plab sohalar, xususan, transport va kommunikasiya infratuzilmasini rivojlantirish borasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati bilan XXRning etakchi quruvchi kompaniyalari o‘rtasida samarali kelishuvlarga erishildi.

Bugungi kunda ushbu temir yo‘l orqali Toshkent – Andijon – Toshkent yo‘nalishida har kuni zamonaviy tezyurar yo‘lovchi poezdlari aholiga xizmat ko‘rsatmoqda. Andijon – Buxoro – Andijon yo‘nalishida haftasiga ikkita yo‘lovchi poezdi, haftada bir marotaba Andijon – Urganch – Andijon, Andijon – Moskva – Andijon yo‘nalishlarida yo‘lovchi poezdlari qatnovi tashkil etildi. Bundan tashqari, bir sutkada o‘nlab yuk poezdi Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li orqali o‘tib, yuklarni o‘z manziliga etkazmoqda.

Xususan, mazkur temir yo‘l orqali ,bir yil davomida 413 ming 162 nafardan ortiq yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatild, 7395,6 ming tonna yuk tashildi. Shuningdek, 1718 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ temir yo‘l transportida yo‘lovchilarni tashishni takomillashtirish maqsadida hukumat ko‘magida “Yo‘lovchi lokomotivlar parkini yangilash” investitsion loyihasini amalga oshirish yakunladi. Ushbu loyihani amalga oshirish natijasida lokomotiv parki 15 ta yo‘lovchi elektrovozlarga ko‘paydi.

Loyihani amalga oshirish poezdlar harakatini 100 kmdan 160 km tezlikkacha oshirish hisobiga yo‘lovchilarning safar vaqtini qisqartirishga sabab bo‘ldi va boshqa transport turlariga nisbatan temir yo‘l orqali yo‘lovchi tashish afzalligini ta‘minladi. Elektrovozlarga yetkazib beriladigan asinxron dvigatellar (ASD)ni qo‘llash poezdlarni tortish uchun ishlatiladigan elektr quvvat iste‘molini 22 % ga qisqartirishga olib keldi.

Bundan tashqari, rekuperativ tormozlanishni qo‘llash iqtisod qiligan elektr quvvatning tortish tarmog‘iga qaytib kelishini ta‘minlaydi, bu poezdlarni tortish uchun ishlatiladigan elektr quvvat harajatlarini kamayishiga olib keladi.

Yangi elektrovozlarning ta'mir aro umumiy yo'l bosish ko'rsatgichlaridagi yuqori ekspluatatsion tavsiflari, elektrovozlarni texnik xizmat ko'rsatish harajatlarini yog'-moy va boshqa yonilg'i komponentlarini kam iste'mol qilish hisobidan amalda yarim baravarigacha qisqartiradi.

Yangi Toshguzar – Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'l liniyasi tog'li hududda qurilgan birinchi liniya hisoblanadi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tabiiy chegarasi vazifasini o'tovchi 1800 m balandlikdagi tog'ni kesib o'tadi. 10-18.5 % qiyalikdagi yo'llarning uzunligi tahminan 64 kmni tashkil etadi, 5-10 % qiyalikda tahminan 35 km. Yangi temir yo'l qurilish trassasida 37 ta ko'prik, galereya va tunnel barpo qilingan.

Ko'prik qurilish zonalarini kuchli ajralma relefli Hisor to'g' tizmalari bilan ifodalanadi. Akrvat dovoni yaqinida trassa Chashmai-hafizan, Akrvat, Sho'rab, Sherobod Daryo vodiylari bo'ylab o'tadi. Tog' qiyaliklari asosan 1.3-1 tikkalikka, daryo vodiylari- baland cho'qqilarning keskin o'zgarishlari va juda tik tog' yon bag'irlari 18,5% qiyalikka egadirlar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, mamlakatda uzun metall ko'priklarning qurilishi ilk bor amalga oshirilgan edi. Bizning mamlakatimizda metall ishlab chiqarish va o'rnatish tajribasi bundan oldin faqat bir misol bilan bog'liq bo'lgan va u Amudaryo ustidan o'tkazilgan ko'prikdir.

Yangi liniyalarda metall ko'priklarning qurilishi sifat nazorati va qurilish jadvaliga rioya qilish uchun yetarli tajribaga ega bo'lgan Yaponiya kompaniyalari texnologiyalari yordamida o'zlashtirildi.

Yangi Toshguzar - Boysun - Qumqo'rg'on temir yo'lining ishga tushirilishi turli sanoat sohasining rivojlanishda, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari transport xizmatlari rivojlantirishda, Respublikaning suvereniteti va mustaqilligini mustahkamlashda, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlikni oshirish hamda sezilarli darajada transport va iqtisodiy aloqalarni butun chizmasini o'zgartirishda qulay shart-sharoitlar yaratib beradi.

Yangi temir yo'l liniyasi qurilishini amalga oshirishning muhim natijasi bu loyihaning to'liq O'zbekiston Respublikasi korxonalarini tomonidan amalga oshirilganligidir. Turli darajadagi rahbarlar, dizaynerlar, muhandislar, quruvchilar, montajchilar, turli ixtisoslikdagi ishchilar, haydovchilar, mexaniklar va temir yo'l qurilishida ishtirok etgan boshqa mutaxassis ishchilar baland to'glarda qiyin iqlim sharoitida qurilish ishlari, ko'priklar, galereyalar va boshqa murakkab inshootlarni qurish-montaj ishlarini olib borish sohasida bebaho tajriba orttirdilar.

Quruvchilar zamonaviy texnologiyalar va usullar bilan ish ko'nikmalarini olishgan, ular turli uskunalarni bilan ishlashni o'zlashtirishdi. Bu temir yo'l infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun muhim hissa bo'ladi chunki Afg'onistondagi Hayraton -Mozori Sharif yangi temir yo'l liniyasi qurishda ushbu orttirilgan tajriba mutaxassislarga as qotdi.

2003-yil iyun oyida, Afg'oniston, Eron va O'zbekiston prezidentlari Transafg'on transport yo'lagi tashkil etish to'g'risida bitim imzoladi. Bu masalani Afg'oniston

yirik shaharlarini ulaydigan Hayraton- Mozori Sharif - Hirot - Qandahor yo'nalishi bo'yicha yangi temir yo'llar qurish bilan hal qilinishi mumkin va O'zbekiston va Eron avtomagistrallariga chiqishni ta'minlaydi. Kelajakda Pokistonga chiqadigan Mozori Sharif-Qobul yo'nalishida temir yo'l qurilishi mumkin, natijada O'zbekiston orqali Afg'oniston 3 ta yirik mintaqani bog'laydi, shimolda Turkmaniston, Qozog'iston, Rossiya, sharqda Pokiston va Hindiston hamda g'arbda Eron.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ va Afg'oniston Islom Respublikasi Hukumati o'rtasida Hayraton- Mozori Sharif temir yo'l qurish loyihasi shartnomasi imzolandi. Qurilishga rasmiy start 2010-yil 22-yanvarda berildi, 2010-yil 4-noyabrda temir yo'l buyurtmachiga topshirildi. Bu temir yo'l liniyasini qurishda "O'zbekiston temir yo'llari" AJning O'zbekiston Respublikasi tashqarisida amalga oshirgan birinchi loyihasidir. Loyiha Afg'oniston O'zbekiston chegarasida Hayraton temir yo'l stansiyasi va Mozori Sharif shahri o'rtasida yangi bir yo'lli temir yo'l liniyasini qurish, Hayratondagi stansiyaning modernizatsiya qilish, Mozori-Sharif aeroporti yaqinida ayri yo'l (razyezd) qurish va yangi yuk hovlining qurilishini o'z ichiga oladi.

Bu liniyaning uzunligi 75 km, yo'lning ustki qatlamini yotqizish-105 km, shuningdek buning ichida 20 km stansiya yo'llari. Trassa sug'orilmaydigan zonada trassa bo'ylab 9%o maksimal qiyalikda hudud tekisliklaridan o'tadi, 5 stansiya va 34 dona sun'iy inshootlar qurilgan. Hududning xususiyatlarini hisobga olgan holda qum uyumlardan himoya qilish qurilmalari barpo etildi.

Hayraton - Mozori-Sharif yangi temir yo'l liniyasi Afg'onistonning eng rivojlangan va aholi zich joylashgan shimoliy viloyatlarini temir yo'l tashishlarini ta'minlamoqda va mintaqada qishloq xo'jaligi, sanoat, tabiiy gaz va gidroenergetika rivojlantirishga hissa qo'shadi. Temir yo'l Afg'onistonning shimoliy viloyatlari va O'zbekiston o'rtasida minimal chiqim bilan yuk tashishni amalga oshirishni ta'minlaydi, shuningdek, mintaqaning boshqa davlatlari bilan ham. Bundan tashqari, temir yo'l taxminan 1,5 ming kishini doimiy ish joyi bilan ta'minlaydi.

Ushbu temir yo'l uchastkasini qurish kelajakda Shibergan, Anhoy, Maimana va Hirot orqali o'tadigan Transafg'on yo'lagingining yaratilishidagi birinchi bosqich bo'lib, keyinchalik Afg'oniston va O'zbekistonga Bandar Abbas va Chahbahar (Eron), Karachi (Pokiston) portlariga chiqish imkonini beradi. Bu yo'lak orqali to'g'ridan to'g'ri temir yo'l harakatini tashkil qilish Janubi-Sharqiy Osiyodan kelayotgan yuklarni Yevropaga Uzoq Sharq temir yo'l koridorlarga nisbatan qisqaroq yo'l orqali tashish imkonini beradi.

Poyezdlarning tezligini oshirish temir yo'l transportining asosiy vazifalaridan biri bo'lgan. Globallashtirish va yuqori texnologiyalarning rivojlanish sharoitida temir yo'l orqali tashish xalqaro va mahalliy transport aloqalarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy sharoitda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni, yaxshi yo'lga qo'yilgan transport ko'magisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sanoat korxonalarini, qurilish va qishloq xo'jaligining mehnat faoliyati,

odamlarning kayfiyati va ularning mehnat samaradorligi ko'p jihatdan uning aniqliligi va ishonchliligiga bog'liqdir.

Yo'lovchi tashish temir yo'l faoliyatining muhim qismidir. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ mijozlarga xizmat ko'rsatish darjasini oshirish va yo'lovchi transportlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston kompleks transport tizimida yo'lovchi temir yo'l transporti aholiga xizmat ko'rsatishda yetakchi o'rinni egallaydi. Yo'lovchilarni tashish texnologik jarayoni aholiga ommabop xizmat ko'rsatish bilan uzviy bog'liqdir. Bu aholining tashishlardagi ehtiyojlari va transport vositalari mavjudligi o'rtasida muvozanatni saqlab qolishni doimo talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati yo'lovchi tashish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganligi bois, Ispaniya tomonidan Toshkent-Samarqand yo'nalishi bo'ylab tezyurar yo'lovchi tashish tashkil qilish bo'yicha taklif kiritildi.

2009-yilning iyul oyida, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ va "Talgo" kompaniyasi o'rtasida temir yo'l sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.

Bu Memorandum asosida tomonlar O'zbekiston Respublikasida tezyurar temir yo'l yo'lovchi tashish tashkil etish loyihalar va qo'shma tadqiqotlarda, shuningdek, yuqori tezlikdagi "Talgo" yo'lovchi poezdi sotib olish haqida hamkorlik qilishga kelishib oldilar. Yangi tezyurar poezd nomi Afrosiyob bu – Samarqand viloyatida joylashgan qadimiy shahar sharafiga qo'yildi.

2011-yil 8-oktyabrdan "Afrosiyob" (Ispaniya kompaniyasi Talgo) tezyurar poezdi Toshkent-Samarqand-Toshkent 161/162 sonli xabar bilan ishga tushirildi.

Yangi tezyurar poezd bu marshrut orqali xizmat ko'rsatadigan boshqa elektr poezdlar bilan birga, Toshkent va Samarqand shaharlari o'rtasida harakat qiladi. Yuqori tezlikdagi "Afrosiyob" poezdi ikki soat va o'n besh daqiqa ichida 344 km temir yo'l masofasini bosib o'tadi. Maksimal tezligi soatiga 250 kilometrni tashkil etadi.

Poezdga zamonaviy ko'rinishni, avvalo, uning aerodinamik, ta'sir bosim to'lqinlar va yon shamollar uchun optimallashtirgan dizayni beradi. Elektro poezd uzunligi 157m ni, balandligi 4 m ni tashkil qiladi. Barcha salonlari yumshoq, qulay yonboshlaydigan o'rindiqlar va o'rnatilgan stol, shuningdek video ko'rish uchun monitor bilan jihozlangan. Poezdning barcha hududlari chekmaydiganlar hududi hisoblanadi.

Vagonlarning barcha salonlari kiyim uchun ilgichlar va katta yuk saqlash uchun joy, shuningdek an'anaviy yuk javonlari bilan jihozlangan. Vagonda nogiron insonlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan, uchinchi vagonda nogironlar aravachasini joylashtirish uchun temir yo'l xodimini chaqirish tugmasi o'rnatilgan maxsus tutqichli joylar ham mavjud. Poezd hududida pollarning bir xil balandlikda bo'lganligi nogironlar aravachasini tashishga yordam beradi.

Boshqaruvning yangi usullariga o'tish va transport operatsiyalarini faollashtirish sharoitida uning faoliyatining muvaffaqiyati asosan har qanday darajadagi ishchilarning malakasi bilan belgilanadi. Fan va texnikaning zamonaviy taraqqiyoti, sanoatdagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot har bir temiryo'lchidan o'z malaka darajasini doimiy ravishda oshirishni taqozo etadi.

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati bo'yicha imzolangan "Personalni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2023-yil 20-oktyabr 11-NGK-son buyruqqa muvofiq, Toshkent temir yo'l texnikumi huzurida faoliyat yuritib kelayotgan Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi hamda Mashinist va mashinist yordamchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv markazi negizida "Temiryo'linfratuzilma" AJ tarkibida faoliyat yurituvchi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Personalni tayyorlash muassasasi tashkil etildi.

Temir yo'l transporti sohasiga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini, o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim sifatini nazorat qilish hamda baholashga qo'yiladigan talablarni nazarda tutuvchi "Temir yo'l transporti xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yilgan davlat ta'lim talablari" ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlandi.

Personalni tayyorlash muassasasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor qilish tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 25-fevral 88-son qarori talablaridan kelib chiqib, "Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyati" bo'yicha 2024-yil 16-fevral 225722-son, 2024-yil 23-may 283053-son hamda "Mehnatni muhofaza qilish sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash" faoliyati bo'yicha 2024-yil 23-fevral 229145-son tasdiqnomalar olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrda "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4939-son, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentyabrda "Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 616-son qarorlari bandlari ijrosi doirasida Jamiyat tomonidan temir yo'l tizimi uchun ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan tarmoq kvalifikatsiya ramkasi, 28 (yigirma sakkiz) nomdagi kasb va mutaxassisliklar bo'yicha kasb standartlar ishlab chiqilgan.

Mazkur hujjatlar bosqichma-bosqich takomillashtirilib, 2024-yilda esa yana qo'shimcha 6 nomdagi kasb standartlari ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi kasbag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining <https://prof-standart.uz> platformasida muhokamaga qo'yildi hamda muvaffaqiyatli muhokamadan o'tkazildi, 2025-yilda yana 12 nomdagi kasb standartlari tizimga joylashtirildi.

Temir yo‘l transporti sohasiga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini, o‘quv jarayonini tashkil etish, ta‘lim sifatini nazorat qilish hamda baholashga qo‘yiladigan talablarni nazarda tutuvchi “Temir yo‘l transporti xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo‘yilgan davlat ta‘lim talablari” ishlab chiqilib, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlandi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash maqsadida, 2005-yildan shu kunga qadar Peterburg davlat temir yo‘l universiteti, Moskva po‘lat va qotishmalar instituti, Uzoq Sharq federal universitetlarining bakalavriat, muhandislik, magistratura va aspirantura dasturlari bo‘yicha:

- 2007-2019-yillarda 280 nafar;
- 2020-yilda 61 nafar;
- 2021-yilda 61 nafar;
- 2022-yilda 62 nafar;
- 2023-yilda 154 nafar;
- 2024-yilda 33 nafar;
- 2025- yilda 64 nafar yoshlar tahsil olib qaytgan.

Ushbu yoshlarning mehnat faoliyatlari monitoringi quyidagicha:

- “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ hamda tarkibiy korxonalarda – 239 nafar;
- Toshkent davlat transport universitetida – 103 nafar;
- davlat tashkilotlarida – 89 nafar;
- xususiy sektorda – 149 nafar;
- ta‘limning magistratura bosqichida – 38 nafar.

Jamiyat kadrlar ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida:

- 2020-yilda 47 nafar;
- 2021-yilda 41 nafar;
- 2022-yilda 33 nafar;
- 2023-yilda 10 nafar;
- 2024-yilda 19 nafar;
- 2025-yilda yana 16 nafar yoshlar tahsil olish uchun yuborilgan bo‘lsa, 6 nafar

yoshlar Rossiya federatsiyasi granti asosida magistratura bosqichiga qabul qilindilar.

Xususan, hozirda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi majlislarida qabul qilingan qarorlarga muvofiq, 54 nafar yoshlar Rossiya Federatsiyasida bakalavriat, muhandislik, magistratura va aspirantura dasturlari bo‘yicha tahsil olmoqdalar, jumladan:

- N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universitetida 8 nafar;
- Rossiya transport universitetida (RUT (MIIT)) 32 nafar;
- Moskva milliy texnologik tadqiqotlar universitetida (MISiS) 9 nafar;
- Moskva arxitektura institutida (MARXI) 2 nafar;
- Shimoliy Kavkaz kon-metallurgiya institutida (SKGMI) 1 nafar;

- Belarus davlat transport universitetida bo'yicha 2 nafar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2021-yil 4-noyabr 675-son qarorlariga muvofiq:

- 2019/2020 o'quv yilida 97 nafar;
- 2020/2021 o'quv yilida 108 nafar;
- 2021/2022 o'quv yilida 94 nafar;
- 2022/2023 o'quv yilida 90 nafar;
- 2023/2024 o'quv yilida 99 nafar;
- 2024/2025 o'quv yilida esa 100 nafar
- 2025/2026 o'quv yilida esa 186 nafar ishchi-xodimlar oliy ta'lim

muassasalarining sirtqi ta'lim shakliga o'qishga tavsiya etilgan.

Shu bilan birga, xodimlar malakasini oshirish va kasbga qayta tayyorlash maqsadida 2025-yil mobaynida:

Mashinist va mashinist yordamchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv markazida 285 nafar xodim qayta tayyorlandi, jumladan:

- |  |            |
|--|------------|
| 1. Chilangardan elektrovoz mashinisti yordamchisiga                                    | - 51 nafar |
| 2. Teplovoz mashinisti yordamchisidan mashinistlikka                                   | - 53 nafar |
| 3. Elektrovoz mashinisti yordamchisidan mashinistlikka                                 | - 77 nafar |
| 4. Elektropoyezd mashinisti yordamchisidan mashinistlikka                              | - 21 nafar |
| 5. Teplovozdan mashinistdan elektrovoz mashinistiga                                    | - 27 nafar |
| 6. Ishchi-xodimlarni yo'l mashina va mexanizmlari mashinistiga (o'zi yurar mashinalar) | - 56 nafar |

Shuningdek, 93 nafar xodimning I va II malaka darajasini oshirish maqsadida malakasi oshirildi, jumladan:

- |  |            |
|--|------------|
| 1. Elektrovoz mashinisti                 | - 52 nafar |
| 2. "Afrosiyob" elektropoyezdi mashinisti | - 41 nafar |

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash o'quv markazida quyidagi xo'jaliklar bo'yicha xodimlar malakasi oshirildi:

- |                                    |             |
|------------------------------------|-------------|
| 1. Tashishni tashkil etish         | - 151 nafar |
| 2. Yo'l xo'jaligi                  | - 392 nafar |
| 3. Lokomotiv xo'jaligi             | - 63 nafar  |
| 4. Vagon xo'jaligi                 | - 137 nafar |
| 5. Signallashtirish va aloqa       | - 136 nafar |
| 6. Elektr ta'minoti                | - 227 nafar |
| 7. Yuk va tijorat ishlari          | - 137 nafar |
| 8. Mehnat muhofazasi               | - 300 nafar |
| 9. Iqtisodiy tahlil va prognozlash | - 109 nafar |
| 10. Moliya boshqarmasi             | - 75 nafar  |
| 11. Statistika va hisob            | - 42 nafar  |



12. Personalni boshqarish va kadrlarni tayyorlash - 36 nafar  
13. "O'ztemiryo'lovchi" AJ - 9 nafar  
14. Xaridlarni faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirish - 78 nafar  
15. Sanoat faoliyatini tashkillashtirish - 460 nafar

"Quyuv-mexanika zavodi" AJ hududida joylashgan "Payvandlashga ixtisoslashgan" markaz faoliyati yo'lga qo'yilib, ushbu markazda argonli payvandlash texnologiyasi bo'yicha 145 nafar mutaxassislar malakasi oshirildi.

Shuningdek, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi bo'yicha O'zDstISO 37001:2019 hamda ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatlariga ega bo'ldi.

Toshkent davlat transport universitetida "Ilg'or muhandislik maktabi", zamonaviy o'quv poligoni, vagon xo'jaligiga ixtisoslashgan 2 ta, yo'l xo'jaligi va qurilish sohasiga ixtisoslashgan 3 ta o'quv xonasi, 2 ta 400 o'rinli "Brend" auditoriya foydalanishga topshirildi.

"Toshkent metropoliteni" davlat unitar korxonasi (DUK) O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi yirik transport tashkilotidir. U Toshkent shahridagi metro tizimini boshqarish, rivojlantirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi.

Hozirgi kunga kelib 2025-yil holatiga ko'ra, Toshkent metropoliteni quyidagi yo'nalishlardan iborat:

- Chilonzor yo'li: 23,7 km uzunlikda, 17 ta bekatga ega.
- O'zbekiston yo'li: 14,3 km, 11 ta bekat.
- Yunusobod yo'li: 10,5 km, 8 ta bekat.
- Halqa (yerusti) yo'li: 21,9 km, 14 ta bekat.

Umumiy uzunligi 70,4 km bo'lib, jami 50 ta bekat faoliyat yuritmoqda .

